

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «A» kurs talabasi

Qurbaniyozova Shoxnozaning
«ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA HAYOTIY HAQIQAT
VA BADIY TALQIN»
mavzusida tayyorlagan

M U S T A Q I L I S H I

Nukus – 2015

MUNDARIJA

1. Kirish
2. Lirik kechinma va badiiy ifoda
3. Davr haqiqati va qahramon talqini
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni, noyob iste'dod sohibi Erkin Vohidov shariatimizning porloq yulduzidir.

E.Vohidov o'zbek adabiyotiga 60-yillarda kirib keldi. U shoir sifatida so'nggi davrlarda mamlakat hayotida, ijodiy ishda jonlangan demokratik harakat, kurashchanlik va oshkoralik ruhi ta'sirida o'sib kamolotga yetdi, adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Erkin Vohidov 1936-yilda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida tug'ildi. 1960-yilda Toshkent Davlat universiteti filologiya fakul'tetini bitirdi. "Yosh gvardiya" hamda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida mas'ul lavozimlarda ishladi. "Yoshlik" jurnaliga Bosh muharrir bo'ldi. "Sharqiy qirg'oq" to'plami uchun Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlandi (1983). Shoir O'zbekiston qahramoni yuksak unvonini olishga sazavor bo'ldi.

Erkin Vohidov adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, asardan asarga tobora o'sa bordi. Shoirning bunday ijodiy o'sishida uning ustozlardan o'rganishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. E.Vohidovning ustozlardan ijodiy o'rganishi, asosan, ikki yo'l bilan sodir bo'ldi: birinchidan, E.Vohidov yoshligidan boshlab Navoiy, Fuzuliy, Pushkin, Yesenin, H.Olimjan, G'ayraty kabi shoirlarning asarlarini o'qib o'rgandi. Ana shuning uchun ham u, masalan, Hamid Olimjon haqida: "Men uni ustoz deyman, g'oyibona yetaklagan, xanda urib oqqan, misralari yosh qalbimga shamolday quyilgan, menga baxt va shodlikni kuylash san'atini o'rgatgan shoir..." deb yozgan edi.

Ikkinchidan, Erkin Vohidov o'z faoliyati davomida Abu Ali Ibn Sino, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fridrix Shiller, I.V. Gyote, A. Pushkin, S.Esenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvordovskiy, V.Hamzatov singari shoirlarning bir qancha asarlarini tarjima qildi. U, ayniqsa, I.Gyotening "Faust", Sergey Yeseninning "Eron taronalari" asarlarini mohirona o'girdi. Shu jarayonda bu shoirlar ijodidan ta'sirlandi, ulardan ijodiy o'rgandi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki she'riyatning hayotni qaysi xil timsollar asosida, qay yo'sinda badiiy tadqiq etishi lirik qahramon siymosining qay suratda

namoyon bo'lishi, shoir iste'dodi, e'tiqodi va ma'naviyati bilan birgalikda ijtimoiy-adabiy muhitga ham bog'liq. «Anglashilinishicha, davr yo'nalishi shoir e'tiqodi va iste'dodiga zid bo'lmasa ijodkor o'z «men»ini asarlariga ko'proq, samaraliroq singdiradi. Aksincha bo'lsa, davrdagi yo'nalishlar shoir ruhi va ilhomi ustidan hukmronlik qilsa, yozgan har bir satri «elak»dan o'tkazilsa, ijodkor «men»i rangsiz va qashshoq holga tushishi mumkin. Ammo iste'dod shuning uchun ham iste'dodki, u o'zining tengsiz matonati, qarama-qarshiliklarni enga olish qudrati bilan muhit dovullarini yengib, ulug' va betakror asarlar, isyonkor va jur'atli qahramonlar obrazini yarata oladi».¹

Erkin Vohidov ana shunday iste'dodli va jasoratli shoirdir. Zero, E.Vohidov ijodida har bir davrda shu davr muammolari va insonlar taqdiri, shaxs erki muammolari o'z aksini topib kelmoqda. Bu muammolarni o'ziga xos yo'sinda badiiy adabiyotning turli xil tasvir va vositalaridan mohirona tasvirlab beradi. Umuman iste'dod haqida shoirning o'zi bir qancha fikrlarni ilgari surgan. "Men adabiyotimizning, xususan, she'riyatimizning ertangi kuniga ishonch bilan qarayman va inqiroz haqidagi gaplarni asossiz deb hisoblayman. Chunki, birinchidan, xalqimiz-ijodni, adabiyot va san'atini sevadigan, she'rparast xalq. Hech qanday bozor iqtisodiyoti uning muhabbatini so'ndirolmaydi. Xalqimiz Xofiz-u Navoiylar, Bedil-u Fuzuliylar ruhida tarbiya topgan. She'riyat bugun sinov davrini boshdan kechirayapti deb o'ylayman. Undan muvaffaqiyatli o'tish uchun shoir katta san'atkor bo'lishi, xalqni o'rta yotgan, ko'ngil tubiga yashiringan gaplarni topib ayta olishi kerak. Shundagina uning ijodi adabiy muhitdan chiqib umumxalq mulkiga aylanadi."¹

O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov ijodida insonga bo'lgan falsafiy ko'z qarashlar o'ziga xos badiiy ifodasini topgan bo'lib, shoir o'z asarlarida davr va shaxs muammosiga katta e'tibor qaratadi va buni o'z g'azallari, to'rtliklari, hajviy she'rlari, dostonlarida ham mohirona tasvirlab beradi.

¹ Norbaev. B. Istiqlof va iste'dod tarbiyasi. -T.: 1996. 8-bet.

¹ Vohidov E. Dunyoga ochiq ko'z bilan qarash saodati. "Xalq so'zi". 1999. 26-avgust.

LIRIK KECHINMA VA BADIY IFODA

She`riyatning hayotni qaysi xil timsollar asosida, qay yo`sinda badiiy tadqiq etishi lirik qahramon siymosining qay suratda namayon bo`lishi shoir, iste`dodi, e`tiqodi va ma`naviyati bilan birgalikda ijtimoiy adabiy muhitga ham bog`liq. Anglashilinishicha, davr yo`nalishi shoir e`tiqodi va iste`dodiga zid bo`lmasa ijodkor o`z "men"ini asarlariga ko`proq, samaraliroq singdiradi. Aksincha bo`lsa, davrdagi yo`nalishlar shoir ruhi va ilhomi ustidan hukmronlik qilsa, yozgan har bir satri "elak"dan o`tkazilsa, ijodkor "men"i rangsiz qashshoq holga tushishi mumkin. Ammo iste`dod shuning uchun ham iste`dodki, u o`zining tengsiz matonati qarama-qarshiliklarni yenga olish qudrati bilan muhit dovullarini engib, ulug` va betakror asarlar, isyonkor va jur`atli qahramonlar obrazini yarata oladi.

1917-yilgacha ham, undan keyin ham xalq va uning istedodli vakillari hayoti silliq kechgan emas, uni silliq qilib ko`rsatuvchilar bo`lgan, xolos. Ammo shunisi ham aniqki, Oktyabr to`ntarilishigacha, ayniqsa, 25-yillargacha matbuot, xususan shoirlar ijodi o`ta darajada tsenzura elagidan o`tkazilmadi... Bolshovoylar ham adabiyot va san`atni bir hamladayoq o`z iznlariga sola olmadilar. Zero o`sha paytlari, ham to`la shakllanib yetmagan bo`lsa-da, jadidlar rahnamolik qilayotgan demokratik oqim mavjud edi. Qolaversa, adabiyotning xalq hayotidagi o`rni va vazifasini yaxshi tushunadigan otashnafas adiblar to`lib-toshib ijod qilayotgandi. Munavvar Qori, Cho`lpon, Oybek, A.Qodiriy, Fitrat, Hamza, Botu, Elbek kabilar adabiy muhitda o`ziga xos musaffolikni saqlab turishadi. Buning ustiga o`sha 20-yillar boshida matbuot taraqqiyparvar qo`lidan butunlay tortib olinmagn edi. Ular sho`ro hokimiyatining qaror va ko`rsatmalari ijod ruhiga zid, shaxs erkinligiga yot ekanligini his etishardi. 30-yillargacha ham Cho`lpon, Fitrat kabi adiblar garchi millatchi sifatida tanqid etilsa-da, ommaviy qatag`onlar hali boshlanmagan edi. Yuqorida nomlari sanalgan adib va ziyolilar "adabiyot yashasa millat yashashini" (Cho`lpon), she`riyat xalq hayotini haqqoniy ifodalab berishi lozimligini, bu yo`l oxir oqibat ozodlik kurashchilarini tarbiyalashga asos bo`lishini chuqur tushuntirdi. Ikkinchidan, o`sha paytlari ochilgan gazeta-

jurnallarda ham shu xil yuragida kurash va istiqlool ruhi kuchli bo'lgan qalamkashlar ishlardi.

50-yillar oxiri, 60-yillar boshida iste'dodlarning unib o'sishini ta'minlaydigan bir muhit yuzaga keldi. She'riyatga E.Vohidov, A.Oripov, M.Ali, R.Parfi, G.Nurullayeva singari qator iste'dod egalari kirib kelishdi. Ularning har birining she'riyatda o'z o'rni va roli bor. Ammo biz bu o'rinda E. Vohidov ijodiga, uning mahorati muammolariga diqqat qilmoqchimiz. Chunki uning ijodida ustozlar she'riyatidagi ijobiy xususiyatlar, hayotiylik va tabiiylik, muammolariga jiddiy munosabat, illatlarga muhosasizlik ayon sezilib turadi. Albatta, Erkin Vohidov she'rlaridagi bu xil ijobiy xususiyatlar, lirik qahramon xarakteridagi tabiiylik darhol namayon bo'ladi. Shu darajagacha yetguncha shoir ijodi ma'lum jarayonni bosib vtdiki, biz buni ham ko'zdan qochirmasligimiz kerak. Bu yosh iste'dodlar tarbiyasiga, o'quvchilar ma'naviyatining, didining o'sishiga ozmi-ko'pmi ta'sir etishi mumkin.

E.Vohidovning ilk she'rlari mazmun jihatdangina emas, shakl jihatdan ham havas qilarli darajada silliq, ravon, satrlar beozor tuyuladi. Ularda sho'ro maktabi va G'ayratiy to'garagining tarbiyasini olgan yosh yigitning qalb zarblari sezilib turibdi.

Erkin Vohidovning ilk she'rlarini o'qigansiz, shahar maktablarida o'qib ulg'aygan, tabiati ham, qalami ham silliqlangan, qalbida bir dunyo orzular bilan yashayotgan yosh yigitning ma'naviyatini tasavvur etasiz.

Shoirning ilk ijodidan ma'nosi nisbatan yengilroq, odmi sherlarni topish mumkin, ammo soxtalik va mag'rurlik unga begonaligi sezilib turibdi. Binobarin, G'ayratiy to'garagi bu o'rinda iste'dod qalamini charxlash ma'nosida ijobiy rol o'ynagan bo'lishi tabiiy. Ammo ilk ijodi ma'lum aqida, jilovlar ta'sirida shakllansa, bu hol shoirning ijodiy-estetik printsiplari o'zgacharoq shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Erkin Vohidovning ilk ijodi o'ziga xos o'ychanlik, sokinlik, sillqlik, mantiqlik ayon sezilib turadi. Shoir o'zining dasturini o'rta tashlab, Vatan: "Bugun senga faqatgina she'r bag'ishladim, yurak bo'lsa, jonni fido qilgim keladi", - der ekan, lirik qahramon xarakteridagi sillqlik ham ochiq

ko`rinadi. Binobarin, u jonimni fido etaman, demaydi, muloyimroq yo`sinda "jonni fido qilgim keladi",-deydi.

Erkin Vohidov bir she`rida yo`llarga qarata: "Shoir bo`lsam ko`raman sizdan" desa, "Qalam"da: "Meni yurtim, davlatimga, xalqimga hizmat qilish davlatiga etkazding"-deydi. Bu satrlardagi "ko`rarman sizdan", "davlatimga etkazding" kabi turli ma`no tashuvchi so`z o`yinlari tufayli she`rxon qalbida o`ziga xos mayin ehtiroslar uyg`onadi.

Shoir ijodining boshlarida yozgan dasturiy she`rlaridan birining qahramoni: "Yo`q, xilvat istamayman, orom bilmas yosh jonim, to`lqin urgan ummoncha bor yurakdagi tug`yonim",-degan edi. E.Vohidov hozirgacha o`z lirik qahramoni aytganidek, junbushga tushib, tug`yon urib yashadi, deyish mumkin. Ammo tug`yon bilan tug`yonning, yashash bilan yashashning farqi bor. Erkin Vohidovning kuchli hayajon bilan qalam surgan, keskin fikrlar bilan maydonga chiqqan paytlari ham kam bo`lmadi. Ammo qaysi davrlarda shoir ijodi qaysi yo`nalishda bo`ldi? Uning lirik qahramoni yillar osha qanday xususiyatlarni orttirdi va qaysi fazilatlarini boy berdi?

Erkin Vohidov yuqorida qisman eslatilganidek o`z hissiyotlarini o`ta oshkor qilavermaydigan, ehtiyotkor, meyorini saqlab biladigan shaxs sifatida ko`rinadi. Balki G`ayratiy maktabi, balki xarakterdagi shu xil kamsuqumlik, ehtiyotkorlik shoirning dastlabki ijodida hayotning yorug` tomonlarini, shodlik va baxtiyorlikni kuylashga sabab bo`lgandir? Har holda uning lirik qahramoni olamni "shodlik uchun yaralgan" deb ta`riflaydi, hayotdan nur va go`zallik topadi, yashab turgan bog` va vatanni aynan teng deb ta`riflaydi. Uning qahramoni Vatanga: "kezgan bilan, sayr etgan bilan husningga hech to`yib bo`larmidi?"-deydi. Albatta hayot qanchalik og`ir, murakkab, ziddiyatli bo`lmasin, shoir uning yorug` parchalarini kuylashi mumkin. Shu ma`noda Erkin Vohidovning yosh qahramoniga hayot go`zallik manbai bo`lib ko`rinishi bir jihatdan tabiiy: "jilmayadi o`zida yo`q shod, yangi oy ham ketmay qoshingdan, etak-etak olib koinot. Yulduzlarni sochar boshingdan..." deya yurt go`zalligini ko`tarinki ruhda kuylash ham shu holning natijasidir. Shuningdek shoirning:

Men insonman, qalbimda otash,
Quyoshdan toj, oydan taxt qurdim,
Men insonman, ko`hna jafokash
Tuprog`imda mangu baxt qurdim-

deya e`tirof etishi ham ma`lum ma`noda tabiiy. Chunki shoir zotiga hayot qanday ko`rinsa, u shunday kuylagani ma`qul. O`sha paytda Erkin Vohidov lirik qahramoniga hayot shunday ko`ringan, shodlik va baxtni ko`tarinki ruhda kuylagan ekan, bunga shak keltirish qiyin. Agar ijodkor baxtni ishonarli va samimiy kuylay olsa, uning asari g`oyaviy-badiiy yuksaklik kasb etsa, buni qo`llab quvvatlash lozim. Qolaversa, yosh ijodkor ko`proq kitob ta`sirida bo`ladi. Bu ta`sir uning asarlarida aks etadi. Erkin Vohidovning ilk she`rlarida ozmi-ko`pmi Hamid Olimjon, Mirtemir va Shayxzoda kabi shoirlarning hayotsevarlik ruhi bilan yo`g`rilgan asarlari ta`siri sezilib turadi. Yana shunisi borki, davr, muhit tamoyillari yosh ijodkor ongida chuqur iz qoldirmasligi ham mumkin emas. Erkin Vohidov o`z ijodini 50-yillarning nosog`lom muhitidan nafas olgan holda boshladi.

1946-56-yillar adabiyoti va adabiy tanqidchiligida barcha g`am-qayg`ular oktyabr to`ntarilishidan oldingi davrda qolib ketdi, Sho`ro zamonida esa faqat baxtiyorlik hukmron, kishilarimiz o`lim, baxtsizlik nimaligini bilmaydi, degan targ`ibot yoshlar ongiga zo`r berib singdirilgan. Erkin Vohidovning yosh qahramoni ana shu targ`ibot ta`sirida ulg`aygan. Shuning uchun ham u she`riyatning vazifasi kishi ko`ngliga nur va surur olib kirishi, deb biladi. Albatta, insof va adolat nuqtai-nazardan olib qaraganda, bu fikrni ham mutlaqo yangilash deb bo`lmaydi. Insoniyat hamisha nurga, ziyoga, baxtga intilib kelgan. Baxtni, shodlikni tarannum etish she`riyatning ezgu vazifalaridan biri ekanligi ham rost. Buning ustiga har qanday og`ir sharoitda ham baxt va baxtsizlik, quvonch va qayg`u hayotda birgalikda yashaydi. Binobarin, 1946-56-yillar hayotida ham baxt, shodlik mutlaqo yo`q edi, dunyo faqat qorong`ulikdan, g`am-alamdan iborat edi, deb qat`iy hukm chiqarish insofdan emas. Axir daxshatli urush paytlari ham yig`i-sig`i, fojialar yonida kimningdir to`yi, yaxshi kunlari bo`lardiku! O`sha shaxsning

baxtiyor damlarini baxtsizlik, quvonchini g`am, deb ta`riflashga haqqimiz yo`qligi ayon.

Ayni zamonda, ozgina quvonchni ko`paytirib ko`rsatish, mayda yutuqlarni buyuk deb ta`riflash ham hayot haqiqatini adolat tamoyili asosida aks ettirishga zidligini unutmasligimiz lozim. Ayniqsa hayot va o`lim singari adabiy tushunchalar haqida gap ketganda she`rdami, nasrdami, maqoldami, ob`yektiv haqiqatdan sezilarli chekinish bo`lsa u ko`zga tez tashlanadi.

Erkin Vohidovning ba`zi lirik qahramonlari ob`ektiv sabablar va yoshlik romantikasi oqibatida voqealikning ayrim qirralarini bo`rttiribroq ko`rsatganining guvohi bo`lamiz. Shoirning lirik qahramoni dastlab shu e`tiqod bilan yashaganini "Bog`bon" she`ri misolida ko`rish mumkin. Bu she`rga Navoiyning "Xazon sipohiga ey, bog`bon, emas, mone, bu bog` sahniga gar ignadar tikan qilg`il" misralari ishora qilib olingan bo`lsa-da, bu fikrga teskari g`oya ilgari surilgan. Bu she`r personaji bo`lmish 100 yoshli chol: "Bu bog`ing tomiga tikan qilmay ham hazon sipohiga mone bo`loldim" deydi. Shu bilan go`yo umrning o`tkinchiligi buning davrida boshqacha ma`no kasb etadi, demoqchi bo`ladi.

"O`lmaslik" haqidagi g`oya shoir romantik qahramon onggiga shu darajada chuqur singan ekanki, shu shoirdan 10 yil keyin bitilgan "Insoniyat tarixi" nomli uzungina asarda ham shu fikr yanada kengroq ifodalanadi. Rivoyat asosida yozilgan bu she`r personaji-Podshoh o`z yurtidagi barcha olimlarni yig`ib, insoniyat tarixini yozishni buyuradi. Olimlar ko`p yillar ranj-mashaqqat chekib, bu tarixni bitadilar va qirq tuyaga ortib unga olib keladilar. Barcha kitobni o`qib chiqishga ko`zi yetmagan podshoh ularga "ko`pi bilan bir tuyaga" ortsa bo`ladigan kitob yozishni buyuradi. Keyinroq bu ishni bajargan olimlarga bu- bir tuyaga yuk bo`lgan kitobni hali tugatib kelganlarida esa podshoh o`lim to`shagida yotgan bo`ladi va ulardan kitob mazmunini ikki og`iz gap bilan so`zlab berishni iltimos qiladi. Ular kitob mazmunini tushuntirib: "Odamlar tug`iladi, g`am chekadi, o`ladi. Insoniyat tarixi mazmuni shu bo`ladi". deydilar. Rivoyat shu yerda tugaydi. Ammo she`r tugamaydi. O`sha zamonda shu xil xulosa bilan she`rni tugatish ham o`ziga o`zi qafas yasash bilan barobar edi... Unda shoirni pessimizmdan,

partiyaviylikdan, sinfiylikdan chekinganlikda ayblashlari turgan gap edi. Shuni sezgani uchunmi Erkin Vohidov bizning zamonga kelib, bu tarix: "afsona bo`lib qoldi, g`am odamlarga begona bo`lib qoldi" degan g`oyani ilgari suradi. She`r oxirida esa: "Odamzod tarixida ortga qaytish bo`lmaydi, odamlar tug`iladi, kurashadi, o`lmaydi" deb optimistik xulosa chiqaradi. Bu yerda moddiyumchi (materialist) qahramon odamlar ruhan emas, jisman ham abadiydir, degan g`oyani baralla ifodalayotgani baralla sezilib turibdi...

Ammo Erkin Vohidovning ijodi 60-yillar boshida yaratilgan she`rlardangina iborat emasligi, qoolaversa, uning o`sha paytda yaratgan asarlari orasida ham, yuqorida qisman aytib o`tilganidek, mayin lirizm va hayotiy romantikaga to`liq she`rlar mavjudligini eslatib turmoq lozim.

Aytmoqchimizki, shoirning milliylikka, ma`naviy yetuk, faol inson obrazini yaratishgacha kelib yetish yo`li silliq va ravon kechgan emas. Bu yo`l, ramziy ma`noda, goh silliq marmarlardan, goh o`ru qirlardan o`tsa, goh tog`-u toshlar, cho`qoraqalpoqilar va jarliklardan o`tib kelmoqda. Uning hayot va ijod yo`li faqat nurli manzillardan iborat bo`lmaganiday, faqat qorong`u go`shalarini ham makon etib qolgan emas. Shoir ijodidagi qaysi davrlarda nurli tamoyillar ko`payganini, ularni zarracha kamsitmagan holda ob`ektiv haqiqat nuqtai nazaridan tahlil etishga intilar ekanmiz, har xil tamoyillarga duch kelamiz:

60-yillarning o`rtalariga kelib she`riyatdagi yo`nalish hayotiylik tomon o`zgarishi bilan shoir ijodida ham bir qator tamoyillar paydo bo`ldi. Oylar, yillar o`tib Erkin Vohidovning uslublari hayot haqiqatini borligicha, murakkabligicha ifodalash tomonga o`zgardi. Hayotnieng u yoki bu qirrasini teran tadqiq etish mahoratlari oshdi, dunyoqarashlarida yangiliklar yuzaga keldi, ijodiy qamrov ufqlari kengaydi.

"Keyingi yillarda she`riyatning shiddat bilan rivojlanishining sababi shoirlarning xuddi o`z qarzlari uzayotgandek urushdan keyingi yillar she`riyatida ko`rinmagan, ammo o`quvchini ham, adabiyotchilarni ham qiziqtirgan mavzularda ko`p va xo`p yozganidir. Men bu yerda, avvalo hayot bor murakkabligi va qarama-qarshiliklari bilan ifodalangan she`rlarni ko`zda tutaman"-degan edi

o`shanda adabiyotshunoslardan biri. Zero, hayot murakkab unda ijobiy va salbiy hodisalar ham, vaqt ham keskin ajralib turmaydi, ular bir biriga chatishib, birikib ketgan bo`ladi. Shoir zoti hayotning lirik qahramon xarakteri, ruhiyati orqali tadqiq etadi. Lirik qahramon ruhiyati esa hayot murakkabliklari ta`sirida o`zgarib, turlanib turadi. She`riyatga 60-yillarda kirib kelgan qator shoirlarning lirik qahramonlari ruhiyatida oq va qora rangini emas, turli tuman ranglar "joy talashadi" (Shayhzoda). Zotan, hayot bir yoki ikki emas, ko`plab ranglarining, bir, ikki emas, ko`plab ohanglarning sintezidan iboratdir. Hayotdagi ijtimoiy yangilanish belgilari, uslublari hayot haqiqati asosida shakllangan talantlarning asarlarida aks etishi, tabiiy, albatta.

Shayhzoda, M.Boboyev, S.Zunnunova, Shukrulloning ayrim she`rlarida ko`ringan o`ziga xos hayotiylik, turmushdagi salbiy hodisalarda faol munosabat E.Vohidovning satirik yo`sinda yozgan she`rlarida ("Nasihat", "Ko`chaman") yuksakroq cho`qqiga ko`tarildi.

Sobiq ittifoqning davridagi ayrim asarlarini va Mamarasul Boboyev, A.Muxtor, Shukrullo kabi shoirlarning hajviy ruhdagi ba`zi she`rlarini hisobga olmaganda urushdan keyingi o`n yillikda mavjud hayot haqida hajviy she`rlar soni va sifat jihatdan kam yozildi. Xolbuki, hayotni hajviy ko`z bilan ko`rib poetik tadqiq etish xalq ko`zining ochilishiga millatning o`zligini anglashga jiddiy yordam berish mumkin edi. Hajviy ruh, hayotdagi va insondagi illatlar ustidan kulish orqali kamchiliklardan forig` bo`lish millat ongini yangilabgina qolmasdan, faollikni kuchaytirishga ham yordam beradi. Shu ma`noda Erkin Vohidovning illatlarni nishinga olib hajviy va majoziy she`rlar ijod etishning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati salmoqlidir.

Jumladan, Erkin Vohidov o`zining "Nasihat" she`rida xushomatgo`y og`irning ustidan, yengilning ustidan yurishga o`rgangan, ishdan ko`ra gapni ko`proq biladigan kimlarni fosh etar ekan, kitobxonni shu xil illatlardan yiroq bo`lishiga faollikka da`vat etadi.

Qo`lni ishga mohir etma, tilni gapga usta qil,
Ishni bir qilgan joyingda gapni albat yuzta qil,

Boshlig`ing oldida topmoq istasang sen e`tibor,
Qomating yuz turli bukkin, so`zni ham ming tusda qil.

"Nasihat"dagi shu xil hajviy ruh, kesatiq ohangi mo`ljalga borib tegadi: yaltoqi, mustaqil fikri, dunyoqarashi bo`lmagan ("Hech fikr qilma o`zingcha, qilma bir ish mustaqil"), boshliqlarga hushomadgo`ylik qilib kun o`tkazadigan shaxsning obrazi namayon bo`ladi. Asarning kesatiq tarzida bitilganligi bu she`rda gavdalangan obrazga nafrat uyg`otishda muhim o`rin tutibgina qolmasdan, she`rxonning ko`nglida, ruhida yashirinib yotgan faollik hissini ham uyg`otadi, uni kamchiliklarga murosasiz bo`lish ruhida tarbiyalaydi.

Urushdan keyingi o`n yillikda hayotning ilg`or tomonlarini aks ettirishga hech qanday qarshilik bo`lmagani holda, salbiy taraflarni ifodalashga ruhsat yo`q edi. Yangi davrga kelib esa, Asqad Muxtor to`g`ri ta`kidlaganidek: "Shoirilar nutqiy ohangdosh so`zlarni ishlatishdan sub`ektiv lirikadan, qatron qiluvchi tanqiddan qo`rqmaydigan payt kelgan edi".¹

Prezidentimiz I.Karimov aytganidek, xalq ochlikka, muxtojlikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Afsuski sho`ro hukumati xalqni shunday laqillatib, aldab, adolatsizlikka yo`l qo`yib berdi. El-yurtning asosiy qismati ertaga hayot yaxshi bo`ladi, qiyinchiliklar, fojialar bo`lmaydigan, hamma baxtla hayot kechiradigan tuzumni ko`ramiz deb jonini jabborga berib mehnat qilishdi, azob-uqubat ko`rishdi va hozir ularning bir qismi olamdan ko`z yumdi. Agar hayot bir tomonlama ko`rsatilmaganda edi, o`sha kishilar, balki, turmushni chinakkamiga yaxshilash uchun jon kuydirishardi, she`r mohiyatida yashiringan tarbiyaviy ma`no shu: olamni va odamni yoshlarga, shu jumladan, xalqqa haqqoniy ko`rsatish, ular qalbiga va ongiga to`g`ri, haqqoniy fikrlar, sobit hissiyotlarni joylash, to`g`ri yo`lga boshlash lozim, demoqchi shoir qahramonni.

Erkin Vohidovning ilk she`riyatidagi har jihatdan baxtli lirik qahramon falsafiy she`rlarida dunyoga ochiq ko`z, ammo bosiqlik bilan qaraydigan insonga o`rin bo`shata boshladi. To`g`ri, bu o`zgarishlar yashin tezligida yuz bergani yo`q. Hatto, 70-yillarda yozilgan "Inson" falsafiy g`azalida ham odamzodni quruq madh

¹ Qo`shjonov M. Saylanma II jildlik, I jild.-T. 1982. 351-bet

etuvchi ba`zi misralar bor. Ammo shu bilan birga bu she`rida inson hayotidagi ziddiyatlar, murakkabliklar qayd etiladi.

Sen balo, ham muhtalo, xayr ila kim rostu riyo
Fitnagar olam aro: fatton o`zing qurbon o`zing.
Goh adolat bog`ida, piri adolat gohida
O`z dilingning dargohida shayton o`zing, g`ilmon o`zing

Shoir insonga falsafiy nuqtai nazardan qarayotgani ayon ko`rinib turibdi. Bu erda inson tabiatidagi murakkabliklar: uning goh tojdor, goh qul, goh qon to`kuvchi, goh osmonda xirom etuvchi sifatida tasvirlanishi fikrimiz dalilidir.

Erkin Vohidov 80-yillarga kelib 60-yillarda aytgan: "Yo`q! Halovat istamayman orom bilmas yosh jonim" degan lirik qahramoniga yaqinlashadi. O`zbek tiliga davlat maqomi berish arafasida ma`lum bir muddat o`zi aytmoqchi, qaynoq hayot ichida bo`ldi, o`tkir ijtimoiy-siyosiy maqolalar, she`rlar ijod etdi... Mustaqillik e`lon qilingunga qadar yozilga she`rlarida M.S.Garbachev boshlab bergan qayta qurish respublikamizda amalga oshayotgani ("Eski hammom-eski tos"), qishloq kishilarining nochor sog`ligi to`g`risida haqqoniy fikrlarni ilgari surdi.

Umuman Erkin Vohidov ijodining o`ziga xosligi shoirning Vatan tuyg`usiga, mehnatkash xalq taqdiriga turli davrlarda turli xil qarashlarida ham ko`rinadi.

Ma`lumki inson qalbida ota-bobolari yashab o`tgan joyiga tabiiy mehr tuyg`ulari bo`ladi. Bu tuyg`ular ona allasi, xalqning o`lan va ertaklari, urf-odatlar, yurtning suvi-yu havosi orqali qalbiga, jon taniga o`rnashadi. Haqiqiy shoirlarning qalbi hamisha Vatan mehri ona yurt tuyg`usi bilan to`liq bo`ladi. Zero, shoirlikning o`z ona Vatanni sevmok, uni kuylamoq odamlar qalbida Vatan tuyg`usini uyg`otmoq va bu hissiyotlarning ildiz otishiga yordam bermoq demakdir.

DAVR HAQIQATI VA QAHRAMON TALQINI

Xalq ruhiga ozodlik, vatanparvarlik tuyg`ularni singdirishda she`riyatning roli va o`rni beqiyosdir. She`riyat o`ziga xos timsollar, ramz va istioralar, ohanglar orqali kishi ruhida shunday buyuk tuyg`ular uyg`otadiki, ularni qilich va qurol kuchi bilan ham yo`q qilib bo`lmaydi.

O`ttizinchi yillar adabiyoti hususan, Cho`lpon, Fitrat, A.Qodiriylarning asarlari xalq ruhiga joylab ulgiran edi. Ammo ularning asarlaridagi bu xususiyatlarni, hozirgacha chuqur o`rganganimiz yo`q.

Holbuki, bu mavzu mustaqillikka erishilgan hozirgi sharoitda milliy umuminsoniy qadriyatlaridan kelib chiqib, teran va ob`ektiv ishlansa ozodlikni mustahkamlashga demokratiyani rivojlantirishga, fuqarolar tafakkurini charxlashga, xalqni ma`naviy ruhiy jihatdan yuksaltirishga sabab bo`ladi. Ma`naviyati va ma`rifati yuksak, tafakkur darajasi keng va chuqur xalq vakillarigina mustaqillikning qadriga yetadi, chinakam vatanparvarlarga aylanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Xalqimiz o`zini ozod, erkin deb bilib, muhtojlik va qaramlik iskanjalaridan xolos bo`lgan, qaddini rostlagan, erkin nafas olganda iqtisodiy isloxotlar muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin".¹

Ma`naviyat va ma`rifat vatanparvarlik va istiqlol, erkinlik va iqtisodiyot tushunchalari ko`rinmas rishtalar orqali bir-biriga uzviy bog`langan. Binobarin, ma`naviy, milliy umuminsoniy qadriyatlarni ulug`lagan, qaramlikka qarshi asarlarga boy adabiyot, oxir-oqibat iqtisodiy-ma`naviy kamolot uchun xizmat qiladi. Demak, hurlik va vatanparvarlikni ruhiga joylagan, hayotni yuksak poetik shaklda badiiy tadqiq etgan she`riyat namunalarini haqqoniy tahlil etish, shu orqali yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mustaqillik mafkurasini va she`riyat qonunlarining ayrim qirralarini ochib beradi. Zero, chinakam she`riyat hayotning inson ruhiyatining eng murakkab va chigal tomonlarini favqulotda san`atkorona aks ettira oladi.

¹ Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo`nalishlari.-T.: "O`zbekiston". 1993. –B. 19.

"Boshqa san`atlar she`riyat ifodalagan ma`nolarning yuzdan birini ham ifodalay olmaydi". (Chernishevskiy) Binobarin, hayotni she`riy tadqiq etishning ijtimoiy estetik va axloqiy ahamiyati bordir. "Hayotning og`ir tomonlaridan hayajoni tushmaydigan murakkabliklardan jirkanadigan san`atkorlar haqiqiy ijodkor emas. Haqiqiy san`atkor hayot mavjud joyda poeziyani ham topa oladi". (Belinskiy)

Erkin Vohidov ijodida inson qismati, baxt va fojeasi muammosi o`ziga xos mavzuni tashkil etadi. Shoir ijodiga nazar tashlashdan oldin davr shaxs, baxt va fojia tushunchalari xususida fikr yuritib ko`raylik.

Insonlik baxtmi, fojiami? O`z quvonchini o`zganing qayg`usiga moslab yashayotgan odamga osonmi? Oson bo`lsa uni baxtli deyish mumkinmi? Qiyin bo`lsa-chi? Bu osonlikdan (qiyinlikdan) g`ofil kishilar borligi uning ko`nglini o`stiradimi yo cho`ktiradimi? Bu ziddiyat ichra kun kechirish ma`lum bo`lsa (kingadir) uning dardi dangallashadimi? Dard yengillashsa, yashash osonlashadimi? Yashash osonlashishini sezib, u o`z dardini o`zgalardan pinhon tutishga harakat qilmaydimi? Bu harakatga qarama-qarshi o`laroq o`zgalarning uni bilishga bo`lgan qiziqishi yanada ortib ketmaydimi? Bu qiziqish oqibatida u o`zini o`zgalardan olib qocha boshlasa-chi? Uning peshonasiga "Devona" degan yorliqni yopishtirib qo`ymaymizmi? Bu "siylov" uning baxtidan darakmi, fojiasidan dalolatmi? Bu uning davr oldidagi fojiasi, tarix qarshisidagi baxt bo`lsa ajab emas.

Baxt-qismatning sovuq bir pallasida yashab turib ham narigi, issiq pallani orzu qilish, deganlar adashishmaydimi? Adashgan bo`lsa, mohiyat o`zgarib qoldimi? Baxtni har safar boshqacha xis qilib yashashga ko`nikkan odamning fojiasi ham o`zgaruvchan bo`lsa, ehtimol.

O`z g`ami bilan o`zgalar quvonchiga tamasiz qarayotgan odamning baxti to`kismi, fojiasi serobmi? Baxt to`kis bo`lsa u fojيانing neligini his eta oladimi? Fojيانing neligini his eta olmasa, baxtining to`kisligi uning fojiasidan bir belgi, xolos.

Fojia-muhtasham saroyda davron surib, qorong`u kulbalarni o`ylagach, o`zin yupatadigan (uyoqda ham kunimni ko`rsam bo`ladi, lekin hozircha shu yer qulay,

bechoralarga ham nafim tegadi) odamning taskiniga o`xshash bir narsadan o`tib chiqmaydimi? Ammo odam bu quyoshni tan oladimi? Tan olsa turmush tarzini o`zgartirib yashay boshlaydimi? U turmush tarzini o`zgartgani bilan fojining mohiyati o`zgarmay qolaveradi-ku! Har qanday o`xshatish yarim mohiyatni ifodalaydi. Aslida baxt, fojia daganlari mavhum narsalardir. Qodir va ojiz inson deganlari esa mavjud, konkret hodisadir. San`at bu konkret hodisaga tik qarashdan qo`rqqani uchun mavhum narsalarni o`ylab chiqdimikin, yo ular vositasida insonga tik qaramoqchi bo`ldimi? Yo baxt va fojia insonning qandaydir ilohiy kengliklar chegarasida ushlab turish uchun kashf etildimikin? Baxt ham, fojia ham hech narsa. Buni his etish uchun yolg`on tasavvurlardan voz kechib, qalbning asl suratiga nazar solish kerak. Tasavvur-ongning qiz siynasidek toza tomirlarida narsa-hodisalar qoldirgan dag`al barmoq izlari. Baxtning baxtsiz oqibati-fojiasi. Bu oqibatning o`zini bir baxt borligini tan olish boshqa bir baxtsizlikka sabab bo`ladi-insonda shunday hadiksirash mavjud. Bunday hadiksirashning mavjudligi fojia baxt ichida jon saqlashdan dalolat emasmi? Har qanday baxtning fojia o`tiradi. Fojia-baxtni yuqori darajada anglashdir!

Jisman e`tirof etilgan rohatni ruhan rad etish, vujudning bir lahzalik ruhiga aylanib, ruhning ming yillik vujud ichida qiynalishi, ruhga qarab dunyoning suratini chizish, dunyoni kuzatib ruh qasrini barpo etish, taqiqlangan to`g`rilikka intilib, taklif etilgan egrilikdan voz kechish-bular hammasi baxt va fojining mundariyasi bo`la oladi.

Baxt va fojiani yaxlit narsaning ikki tomoni sifatida anglash-insonlikni anglashdir. Yaxlit narsaning o`zi insondir.

Baxt va fojia butunlay davr tarbiyasida emas. Davr ularni go`sht berib semirtirishi yoki ochlikdan sullaytirishi mumkin. Davr baxt va fojiani o`z farzandlari sifatida tilga olib faxrlanishga haqli, ammo ularni men tuqqanman deb maqtanmaydi. Baxt va fojia insonning o`z tabiati bilan uyg`un tarzda barpo etilgan ruhiy erk. Ularning son va sifati, qiymati va bahosi faqat davr bozoridagina moddiylashadi, turli shakllarga ega bo`ladi.

Insonning insonligi uning baxtini qanchalik ifodalasa fojiasini ham shunchalik oshkor etadi. Insonning insonlik fojiasi bor. Bu fojianing hamkori yo`q. U ruhiy dolg`a. Lekin uning varaqchasiga davr "Baxt" yoki "Baxtsizlik" muhrini urib beradi.

Xo`sh, fojianing mohiyati nimada? Mohiyat insonning jisman (o`zgalar bilan) birdam ekanligi-yu ruhan yolg`iz, yagona ekanligida. Inson moddiy olamning moddiy bir bo`lagi (jisman olganda). Lekin ruhan mustaqil bir olam. Shu haqiqatni anglagan odam, shu haqiqat stixiyasi bilan harakatlangan yurak o`z qismatini fojia xalqalardan iborat zanjir sifatida tasavvur etsa ajab emas. Yagonalikni yaxlit butunlikdan farqlash, qismning o`zi yagonaligi jihatdan butunga teng ekanini his etish, butunninng o`zi yo`qligi, uni tashkil qiluvchi qismlar borligini anglash-fojianing asl sabablari bo`lsa ehtimol.

Ruhning faoliyati borliq harakatga teskari proportsional. Uning yolg`izligi qancha kuchli anglansa, vujudning borliq harakati uyg`unlashuv uchun intilishi shuncha oshadi.

Shuni ham alohida ta`kidlash kerakki, badiiy asarni qolipga solish oxir oqibatda insonni, uning ruhiy g`alayonlarni jilovlaydigan o`lchamlar o`ylab topishga olib boradi. Insonning insoniy tamoyillarini hisobga olmaslik adabiyotni sonsiz sotsiologiyaga, siyosiy kaltakkaaylantirib qo`yadi. Adabiyot muayyan ijtimoiy muhit devorlari panasida qolib ketmasligi lozim. U, aksincha, insonning eng ibtidoiy birlamchi fazilatlarini panalab turgan davrlar osha sakrab, bola-inson, farishta inson bilan yuzma-yuz keladi. Shu nuqtadan turib, insonning orqadagi baxti, oldindagi fojiasini, oldindagi baxti orqadagi fojiasini ko`radi.

Baxtni (zamona baxtini) yo`naltirish, fojiani ("qora o`tmish fojiasini") sohtalashtirish insonning ruhiy olamini, uning ruhiy deolektikasini xaspo`shlashga, insonni tabiat farzandi qilib emas, zamona zurriyodi etib ta`riflashga yo`l ochib beradi. Inson ruhidagi ming yillik buloqlarga chim bosildi. U ruhiyat chashmalaridan simirib poklanish o`rniga davr to`fonlarida chayqalib holdan toydi. Inson baxtning mohiyatini, bu mohiyatning fojiasini unita boshladi. Demakki, u insoniy muvozanatini yo`qotdi.

Baxtning fojiaviy qimmati, fojining baxtga teng qiymati bor. Bu haqiqat 60-yillarnig jonbaxsh shabadalarida tag'in ko'z ochdi. Adabiyot yana o'yga cho'mdi: insonlik baxtmi, fojiami? Inson o'lsa, yana qayta tiriladimi? Tirilsa, o'lmay yashab keta oladimi? O'lmasa, hayot neligini unitib qo'ymaydimi? Hayot neligini unitgan odam o'lmaydimi? Tirilish yashashni bildiradimi? Yashab keta olish uchun tirilmoqning o'zi kifoyami?

Inson yaxlit holda sinfiy ham, partiyaviy ham, ijobiy ham, salbiy ham emas. Sinfiylik (boshqa, «iylik»lar ham) uning umumehtiyoj qozoni qarshisida hamma bilan bir, ammo iste'mol dasturxoni boshida yolg'iz, yagona ekanligidan anglashilsa, ehtimol.

Inson qismatiga baxt va fojia mixlab berilgan bo'ladi. Bir inson baxti (insoniyat) fojiasiga ters, insonlar (insoniyat) baxti shaxs fojiasiga zid kelib turadi. Nazrul Islom fojiasi faqat ming yillik aqidalar talashi ichida qovrilgan. Hindiston. O'zbekiston fojiasigina emas, insonning, insoniyatning fojiasi hamdir. Dunyoda begona dard yo'q. Dunyoda hamma uchun mushtarak dard bor. Bu dardni anglash, his etish, unga bir umrlik fidoiylilik, yoki unga begonalik insonni turfa xil bo'laklarga va bo'lakchalarga bo'lib tashlaydi. Lekin inson qaysi bo'lak yoki bo'lakchaga aylanib umr kechirmasin oxir-oqibatda o'sha buyuk dard mohiyati bilan yuzma-yuz keladi. Umr- o'sha mohiyatga borish yo'li. Hayot-ana shu mohiyatga kiygazilgan chiroyli libos! Birq bu libos ostida har kim o'zi orzu qilgan narsani ko'radi. Insonlarning xuddi ana shu mohiyatiga bo'lgan munosabatlari yig'indisidan baxt va fojia deyilgan nisbiy qiymatlar to'qib chiqariladi. Demak, baxt va fojining asl va insoniy qiymatlari bor. Ularning birinchisi insonning insoniy tabiati sharti sifatida doimiy bo'lsa, keyingilari insonning tabiiy intilishlari va borliq harakati to'qnashuvlari natijasida tug'iladigan ruhiy illyuziyalar sifatida o'tkinchi bo'ladi. Ammo doimiyning o'zi muayyan davr uchun o'tkinchi deganimiz esa muayyan davr uchun doimiy bo'ladi. Demak, ular o'rtasida teskri nisbat qonuni amal qiladi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlar jamiyatda turli tushunchalar va aqidalar kurashi bo'lib moddiylashadi.

Nazrul Islom tabiatida falakning bosh dardi-insoniylik fojiasi kuchli: inson tabiatan erkin, inson tabiatan mahkum, inson tabiatan qodir, inson tabiatan ojiz, inson tabiatan xoliq, inson tabiatan muslim. Uni yo`lga solaman deganlar, oxir-oqibatda yo`lsiz qoladilar. Uni yo`ldan uraman deganlar oxir-oqibatda yo`lga solib qo`ydilar.

Erkin Vohidovning «Istambul fojiasi» she`riy dramasida ham poklik bilan nopoklik to`g`rilik bilan egrilik, halollik bilan ko`zbo`yamachilik, adolat bilan adolatsizlik, samimiylik bilan nosamimiylik o`rtasidagi keskin tafovut va kurash qayta kurash davri talablari asosida yorqin aks ettirilgan. Asar hayotiy ziddiyat asosiga qurilgan va g`oyat jozibali, ta`sirli qilib yozilgan.

«Istambul fojiasi» dramasida asosan uch obraz (kolxoz raisi Jalol, uning xotini Saodat va ukasi vatangado Iskandar) mavjud. Uchovi ham hayot haqiqatiga mos ravishda yaratilgan va asar g`oyasi ana shu qahramonlarning faoliyatlari, hatti harkatlari, dialog va monologlarga mohirlik bilan singdirib yuborilgan.

Dramada ko`rsatilishicha, Saodat muayyan vaqtda yoshlik qilib xatoga yo`l qo`yadi: Iskandarning pok yuragiga ishq o`tini yoqib, «taqdir taqozasiga ko`ra», uning akasi Jalolga turmushga chiqadi. Shu boisdan aka-uka o`rtasida sovuqlik solib, o`zi bilmagan va istamagan holda turli nohush voqealarning sababchisiga aylanadi. Sevgilisiga yeta olmagan Iskandar esa qattiq iztirob chekadi va alam bilan armiyaga ketadi. Fashistlarga qarshi mardona jang qiladi. Og`ir janglarning birida ilojsiz qochadi. Turli ta`qib va qiyinchiliklarga duch keladi. Ko`p yillar davomida Ona Vatan mehriga zor va xor bo`lib, chet ellarda daydib yuradi. Ona yurtida esa bu voqeadan xabarsiz holda frontda qahramonlarcha bo`lgan jangchi sifatida uning haykalini yaratib, Iskandarning nomini ko`klarga ko`taradilar. Hatto Jalolni qahramonning akasi deb ko`tar-ko`tar qiladilar.

Haqiqatda esa, Iskandarning qismati ayanchli bo`ladi. U fojia ustiga fojiaga yo`liqadi. Biroq Iskandar o`z boshidan ne-ne g`urbatlarni, achchiq qismlarni kechirmasin, doimo ona yurt sog`inchi bilan hamnafas bo`ladi. Oxir oqibatda u ona-Vatan va o`z xalqi yuziga qaray olmaydigan noxush xolga tushib befaqt qariydi.

Ana shu qarilik Chog`ida Iskandar O`zbekistondan turist sifatida chet elga borgan akasi Jalolga, shuningdek, sobiq sevgilisi-hozirgi yangasi Saodatga duch kelib qoladi. Bu uchrashuv ko`rinishi pyesa cho`qqisini tashkil etadi hamda asarning keskin drammatik holatlarga, chuqur fojiali voqealarga eng va eng ta`sirli sahifalari sifatida o`quvchi qalbini larzaga soladi. Chunki, bu uchrashuvda hayot haqiqati, aniqrog`i, chalkash taqdiralar qismati, dahshatli voqealarning asl sabablari shekspirona mahorat bilan ochib beriladi. Bu uchrashuv haqida Jalolning o`zi shunday deydi:

Men bu kecha bir lahza ham uxlolganim yo`q,
Butun umrim ko`z oldimdan birma-bir o`tdi
Iskandarning uzoq yillar chekkan dardini
Bir kechada yuragimdan kechirdim bugun
Bu erda men o`lib ketgan ukam bilamas,
O`lib ketgan vijdon bilan uchrashib qoldim
Sen bilmaysan ancha-buncha gunohlarim bor¹

Dramaturg Jalolning shu uchrashuvdan so`ngi ruhiy holatini tasvirlash, boshdan kechgan voqealarni eslash orqali shaxsga sig`inish va turg`unlik davriga xos soxtalik, ko`zbo`yamachilik va qo`shib yozish kabi illatlarni fosh etadi.

Jalol eslaydi:

Bu voqea o`n etti yil ilgari bo`lgan,
Endigina rais bo`lib saylangan edim.
Erta bahor bir kun obkom vakili kelib
Bir piyola choy ustida gap ochib qoldi.
«Biz maslahat qildik,-dedi,-oblastimizda
Sizning kolxoz mash`al bo`lib turishi kerak
Qurltoyga siz borarsiz. Nutq gapirasiz»
«Nega,-dedim-qo`shni kolxoz hamma jihatdan
Oldinda-ku..» U: «Yo`q-dedi, hamma jihatni

¹ Vohidov E. Umrim daryosi. Saylanma. Uchinchi jild. Toshkent. Sharq, 2001. 291-bet.

O`ylamoqni bizga qo`ying... Siz munosibsiz
Qahramonning akasisiz. Tabiat sizga
Ko`p xislatlar berib qo`ygan. Ko`rsatkich bo`lsa
Ko`rsatkichni to`g`irlaymizda. Yordam beramiz».
Bo`shlik qildim. Ko`ndim.
Shundan boshlanib ketdi (291- bet)

Ko`rinadiki, jamoa xo`jalik raisi Jalol yuqori tashkilotlarning xohishiga bo`ysinib, to`g`ri yo`ldan chekinadi. Ko`zbo`yamachilik bilan birni ikki qilib yozadi: ko`rsatkichni ko`taradi. Shu tarzda davlatni ham, xalqni ham aldab, sohta obro` hurmatga erishadi. Qo`sha-qo`sha ordenlar oladi, qahramon bo`ladi. Oxir oqibatda Jalol o`z qilmishidan qattiq pushaymon bo`lib ruhan eziladi. Asarda ruhiy holat haqqoniy aks ettiriladi.

Umuman, Erkin Vohidov o`zbek adabiyotining har tamonlama rivojiga o`zining munosib hissasini qo`shgan.

X u l o s a

Ma'lumki, ijodning, ijodkorning shakllanishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat adabiy muhit, tarbiyaning ahamiyati qanchalar katta bo'lmasin, baribir is'tedod darajasi, fuqoralik vijdoni, iymon-e'tqodi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yana shunisi borki, hatto qulay sharoitda ham ijod g'oyat o'ziga xos, iztirob va qiynoqlarga to'la betinim izlanishlar, ziddiyatlar ichida kechadi. Erkin Vohidovning ijodiy yo'lini kuzatganda, bu fikrlarga isbot topish mumkin.

Erkin 1969-yilda «Yoshlik devoni»ni nashr ettirdi. Mazkur devondan joy olgan asarlar mumtoz adabiyotimiz an'analari ruhida yaratganligi, zamonaviy g'azalligini rivojlantirganligi bilan xarakterlanadi. Erkin Vohidovning mazkur kitobi ba'zi adabiyotshunoslar orasida mavjud bo'lgan aruz vazni eskirdi, zamonaviy mazmunni g'azal janrida ifodalash mumkin emas qabilidagi qarashlarga zarba bo'ldi.

Erkin Vohidov o'zbek adabiyotini qasidachilik janrida yaratgan go'zal she'rlari bilan ham boyitadi. Shoir yaratgan «O'zbekim», «Inson» qasidasi o'zbek qasidachiligining nodir namunalaridir. Eng muhimi bu qasidalarda lirik ohang bilan falsafiy ohang o'zaro uyg'unlashib, she'ring badiiy mazmuni bilan birga ijtimoiy salmog'i ham ortib boradi.

Bu gal shoir ijodida realistik tasvir o'stirib yo'nalishga o'tgandan darak beradi. «O'zbekim» qasidasida xalqning buyukligi, ulug'vorligi uning tarixi bilan, asarlar qa'rida insoniyat madaniyati ilm faniga, taraqqiyotiga qo'shgan qissasi bilan belgilanadi degan g'oyat muhim g'oya ifodalanadi. Shoir o'sha davrda urf bo'lgandek o'tmishni faqat qora bo'yoqlarda tasvirlamaydi, aksincha xalqning tarixini «Pomiru oq soch Tiyonshon» ga qiyoslaydi, o'zbek degan nomni faqat ulug'laydi, u bilan faxrlanadi.

«Inson» qasidasi lirik ohanglar ifodalangan falsafiy asardir. Shoir bu qasidasida insonni nafaqat ulug'laydi, ayni chog'da uni buyukligi-yu yovuzligi, qudratiga, ojizligi, xullas butun murkkabligi bilan tasvirlaydi. Bu hol inson

tushunchasini bir tomonlama emas, balki mukkamal tasavvur etish imkoniyatini yaratadi.

Erkin Vohidov davrlarida yaratgan «Sharqiy qirg`oq», «Yolg`izlik istagi», «Temirtan daholar» kabi she`rlari, «Ruhlar isyoni», «Istambul fojiasi» kabi dostonlarda davr va shaxs muammolarini butun murakkabligi bilan qalamga oladi.

«Manfaat falsafasi», «Majlis qiling», «Donish qishloq latifalari» kabi hajviy asarlarida turmushdagi va ba`zi odamlarda uchrab turadigan illatlar fosh qilinadiki, bular ham davr va shaxs muammosi bilan bog`liq holatdir.

«Ruhlar isyoni» dostonining bosh qahramoni bengal shoiri Nazrul Islomdir, u o`z she`rlarida Hindiston xalqining mustamlaka zulumiga qarshi kuylaydi. Uning she`rlaridagi o`tli chaqiriq va isyonkorlik ruhidan qo`rqqan mustamlakachilar turli xil hiyla-nayranglar, aldovlar bilan uni xalq oldida obro`sizlashtirishga harakat qiladilar va o`z maqsadiga erishadilar. Xalq ozodlikka erishganda Nazrul Islom she`rlari ular tomonidan kuylanadi. Asarda jaholat, shoirlik qismati, abadiyat, fidoylik, buyuklik haqida rivoyatlar, afsonalar keltiriladi. Ular asarning asosiy g`oyasini ochishga harakat qiladi.

Xulosa tarzda shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidov o`z ijodida she`riyatning rang-barang janr va shakllariga murojaat qiladi, hamda har safar uning yangi-yangi namunalarini yaratadi. Shunisi muhimki, shoir xalq va jamiyat taqdiriga taaluqli jiddiy she`rlarida ham hajviy she`rlarda ham voqea hodisalarni quruq bayon etish yo`lidan emas, aksincha asar g`oyasini badiiy tarzda gavdalandirish, sodda va obrazli ixcham va teran badiiy go`zal asarlar yaratish yo`lidan boradi va jiddiy yutuqlarga erishadi.

Umuman, Erkin Vohidov tom ma`nodagi milliy shoir. Hozirgi zamon o`zbek she`riyati taraqqiyotini Erkin Vohidov ijodisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Shoir asarlarining tarbiyaviy estetik va g`oyaviy badiiy ahamiyati nihoyatda kattadir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy siyosatning ustivor yo`nalishlari. -T.: «O`zbekiston» 1993.
2. Karimov I. O`zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: 1998.
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: 1999.
4. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. -T.: 1997.
5. Adabiyot va zamon. -T.: 1980.
6. Adabiyot ruhiyat mulki. -T.: 2000.
7. Vohidov E. Saylanma 3 jildlik. -T.: 2002.
8. Vohidov E. Dunyoga ochiq ko`z bilan qarash saodati. “Xalq so`zi” gazetasi, 1999, 26-avgust
9. Vohidov E. Sadoqatnoma. -T.: 1986.
10. Mirzaev S. Hayot va adabiyot. -T.: 2001.
11. Mo`minov G`. Hozirgi o`zbek dostonchiligida uslubiy izlanishlar. -T.: 1983
12. Mamatqulova N. Izlanish falsafasi. “Yoshlik ” 2002, 5-6.
13. Normatev U. “Zamon va zamin tashvishlari” “Yoshlik” 1986 №7.
14. Normatov U. Talant tarbiyasi. -T.: 1986.
15. Normatov U. Davr tuyg`usi. -T.: 1987.
16. Norbaev B. Istiqlol va iste`dod tarbiyasi. -T.: 1996.
17. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -T.: 2002.
18. Shukurov N. Shoirning yulduzi -T.: 1989.
19. Hammualliflar. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. -T.: 1999.
20. Xudaybergenov N. Davonlardan davonlarga. -T.: 1989.
21. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
22. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
23. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)